ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Sadilloyev Husniddin Izzatbek O'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti

+998933273297

sadilloyevhusniddin2@gmail.com

BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY-MA’NAVIY MADANIYATNIRIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy-ma’naviy madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ilmiy-ijtimoiy jihatdan asoslab beradi. Maqolada kasbiy tayyorgarlik bilan kasbiy-ma’naviy barkamollik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilib, kasbiy-ma’naviy madaniyat ofitser shaxsining muxim sifati sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy pedagogika, kasbiy-ma’naviy madaniyat, kasbiy etika,akmeologiya, aksiologik yondashuv, ofitser shaxsi, refleksiv muhit.

Kirish

Dunyoda kuzatilayotkan notinchliklar izida mudofaa sanoati va xarbiy kuch tuzilmalarning saloxiyatini oshirish, ularning moddiy texnik bazasini yangicha qurol yaroq va texnik uskunalar bilan boyitib borish zarurligi aniq ayon ko’rinib turibdi shu bilan bir qatorda hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi va turli mafkuraviy tahdidlarning ma’naviy va madaniy xujumlarning kuchayishi omilida harbiy xizmatchilar, xususan, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy-ma’naviy barqarorligi davlat xavfsizligi uchun muhim rol o’ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi hamda Prezident farmon va qarorlarida harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning nafaqat jismoniy va kasbiy, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan. Va 2026-yil 13-yanvar kuni bo’lib o’tkan xarbiy xavfsizlik kengashida ham harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratildi. Prezidendimiz nutqida

- Shuni unutmaslik kerakki, harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantrishning asosiy shartidir,-deb aytib o’tib ketdilar.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilarning jangovor shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma’naviy olamini ham muntazam boyitib borish zamon talabi ekanligi aytib o’tilgani, Qayta ko’rib chiqilib o’zgartirishlar kiritish reja qilinayatkan Mudofaa doktrinasi hamda Milliy havfsizlik konsepsiyasida ham bu mavzu dolzarbligini yo’qotmay harbiy tizimda Kasbiy madaniyat, Kasbiy etika , Kasbiy-ma’naviy madaniyat tushunchalarining yanada rivojlantirishiga turtki beradi. Zamonaviy harbiy ta’lim tizimida asosiy xavflardan biri shuki ofitser faqat buyruq bajaruvchi, buyruq beruvchi, texnik mutaxassis lavozim bo’yicha pastdagilardan yuqori turuvchi shaxs sifatida bo’lib qolishidir . Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, kasbiy qudrat ma’naviy nazorat bilan uyg‘unlashmasa, vakolat suiste’moli, adolatsizlik va ishonchning yo‘qolishiga olib keladi. Bu masalada bir necha ilmiy izlanishlarni ham misol keltirsa bo’ladi.

Adabiyotlar tahlili: Filip Zimbardo tajribasi. Stanford universiteti podvalida su'niy qamoqxona tashkil etildi. 24 nafar jismonan va ruxan sog'lom talabalar tanlab olindi. Ular tasodifiy tarzda tanlanib , Qo'riqchi va mahbuslarga ajratildi. 14 kun bo'lishi rejalashtirilgan tajriba 6 kunda to'xtatildi. Sababi qo'riqchilar tomonidan maxbuslarga nisbatan kamsitishlar, ruxiy bosimlar, adolatsiz jazolar qo'llana boshlandi. Vakolat,suistemol qilina boshlandi. Eng qiziqarlisi maxbuslardaxam ojizlik xolati,itoatkorlik xuddiki shunchaki tajriba ekanligi eslaridan chiqkandek tushkunlikka tushish xolatlari kuzatila boshlagan. Xulosa shuni ko'rsatadiki , Odamlar vakolat, ijtimoiy rollar bilan tabaqalashtirilganda, vakolat berilganda zo'ravonlikka, adolatsizlikka , insoniy axloqiy tushunchalarni ustidan bosib o'tishgacha borishi mumkin. Tadqiqot nega aynan shu asnoda tugaganing sabablaridan birini Milgram tajribasidan ko'rsak bo'ladi.

Milgram Tadqiqoti:
Muallif: Stanly Milgram
Joy: Yel Universiteti
Yo'nalish: Ijtimoiy Psixologiya
Maqsad: Odamlarda hokimyat va buyruq kuchi tasirini tekshirish
Qanday o'tqazilgan?
Ishtirokchi: Savol beruvchi rolida
Aktyor : O'quvchi rolida
Savol beriladi:Xato javob uchun tok berish buyiriladi
Tok kuchi boshqichma bosqich oshiriladi (15 - 450 Volt)
Buyruq beruvchi: Oq xalatda,sokin va qat'iy buyruq beradi
Tadqiqot xar xil muhitlarda o'tkazilib ko'rilgan:Qorong'u, yorug' xonalarda, Ishtirokchi va aktyor o'rtasiga devor qo'yilgan xolda, ishtirokchi faqat ko'rib turgan xolda yoki faqat (yolg'on) ingrash ,baqirish, yordam so'rash, to'xtatishni so'ragan xolda. (Har bir ishtirokchi tok rostan berilayatkaniga ishongan.)
Ishtirokchilarning 65% 450 v gacha borishgan !

Berilgan buyruq bajarilganligining asosiy 4 ta sababi ko'rsatilgan
1) Oq xalat, ilmiy muxit, mutaxasisga ishonch
2) Masuliyatni topshirish (buyruq bajardim xolos)
3) Bosqichma bosqich 5v ha 10 30 50……
4) Ijtimoiy bosim.(to'xtatishni so'rasam kuchsiz ko'rinib qolaman)

Filip Zimbardo tajribasida shularning hammasini qo'riqchilar misolida ko'rishimiz mumkin.
1) Muxit: Maxsus kiyim bosh aslahalar berildi.
2) Maxbuslarni qo'riqlash buyurildi
3) Qamoqxona mudiri vazifasini Zimbardo bajarganligi sababli ularni tekshiradigan va ularga qarshi chiqadigan fikir chiqmaganligi ularning bosqichma bosqich hukronliklarini oshirishlari va insoniylik chegarasiga kelishlariga sabab bo'ldi.
4) Ijtimoiy bosimdan ommaga qarshi chiqishdan qo'rqgan xolda, norozi qo'riqchilar.Kuchsiz ko'rinmaslik uchun o'zlarinig fikrkarini aytishdan tiyildilar
Keling endi xarbiy xizmatni eslab ko'ramiz

• Bir xil forma ammo (unvonlar mansab xarxil) Ofitserlar va serjantlar tarkibiga bo'lingan
• Bo'ysinuvchilarga buruqlarniga so'zsiz itoat qilish buyurildi. Ofitserlarga qo'l ostidagilari uchun har taraflama o'rnak bo'lish, ularni boshqarish yuqoridan kelgan buruqlarni bajartirish majburyati qo'yildi
• Qo'l ostidagilarining soni va mavqeyi, unvon ko'tarilishi ortidan kattalashishi belgilab qo'yildi.

Shunday ekan nega barcha ofitserlar qo'riqchilardaka yo'l tutishmayapti? Ha albatta kasbiy kompitentsya qoidalari, kerak bo'lsa insoniy chegaralarni, qonunlarni buzayatkan, Ofitserlar ham uchrab turadi lekin barcha ofitserlar shunaqa degan fikirdanxam yiroq bo'lishimiz kerak. Bunga yo'l qo'yilmasligi uchun qilinga va qilinayatkan ishlar haqida qisqacha aytib o'tsam .

Ofitserlar tarkibiga qabul jarayonlarida umumiy bilimlardan tashqari maxsus psixologik testlar so'rovnamalar xam olinishi. Ular 4 yil mobaynida o'z maxsus xarbiy yo'nalishlaridan qatiy nazar ma'naviy mavkuraviy tadbirlar, harbiy etika, vatanparvarlik, jamoada ishlash va yetakchilik bo'yicha tizimli mashg'ulotlarda ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, harbiy ta'lim jarayonida kursantlarning xulq-atvori, jamoa bilan munosabati va bo'ysunuvchilarga nisbatan munosabatlari doimiy pedagogik va psixologik kuzatuv ostida bo'ladi. Bu esa vakolatning noto'g'ri talqin qilinishi, buyruq va kuchdan no o'rin foydalanish holatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizm vazifasini bajaradi. Aynan mana shu nazorat va tarbiyaviy ta'sir vositalari bo'lajak ofitserlarning kasbiy faoliyatining ma'naviy chegaralarni anglab yetishiga xizmat qiladi.

Shu jihatdan qaralganda, harbiy tizimda ofitserlarning Zimbardo tajribasidagi "qo'riqchi" modeliga o'xshab ketmasligining asosiy sababi Ularning faoliyati qat'iy huquqiy me'yorlar, kasbiy etika qoidalari hamda ma'naviy-axloqiy talablar bilan cheklab qo'yilganidir. Ofitser nafaqat buyruq beruvchi, balki o'z qo'l ostidagilari uchun ma'sul shaxsdir Va ularning shani, qadr-qimmati va ruhiy holatini himoya qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Demak, bo'lajak ofitserlarda kasbiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirish Bu faqatgina individual fazilatlarni rivojlantirish emas, balki harbiy ta'limda sog'lom muhitni ta'minlovchi, vakolat va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Aynan shu jarayon ofitserning buyruq berish vakolatini insoniylik, adolat va vijdon mezonlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan ilmiy-ijtimoiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ofitserlarda kasbiy-ma'naviy madaniyatni rivojlantirish harbiy ta'lim tizimining ikkinchi darajali vazifasi emas, balki uning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Harbiy kasbning o'ziga xos jihati shundaki, unda vakolat, buyruq va bo'ysunish tizimi markaziy o'rinni egallaydi. Agar ushbu tizim ma'naviy-axloqiy nazorat, kasbiy etika va shaxsiy mas'uliyat bilan uyg'unlashmasa, Filip Zimbardo va Stenli Milgram tajribalarida kuzatilganidek, zo'ravonlik va insoniylik chegaralari buzilishi xavfini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy harbiy ta'lim sharoitida ofitser shaxsi nafaqat professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis, balki yuksak ma'naviy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, adolat va vatanparvarlik fazilatlarini o'zida mujassam etgan yetakchi shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy-ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni akmeologik, aksiologik va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ofitserlarda kasbiy-ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish harbiy ta'lim tizimining barqarorligi, harbiy jamoalarda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni ta'minlash hamda davlat xavfsizligini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va pedagogik innovatsiyalar harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari
   Harbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid hujjatlar. — Toshkent, 2017–2026 yy.
2. Zimbardo, P. G. The Lucifer Effect: Understanding How Good
3. People Turn Evil. — New York: Random House, 2007.
4. Milgram, S. Obedience to Authority: An Experimental View. — New York: Harper & Row, 1974.

5. Karayeva, A. F. Harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari. Harbiy ta’lim va fanda innovatsiyalar ilmiy jurnali, 2026, №14.
6. Abdullayev A. X. Harbiy pedagogika asoslari.Toshkent ,2019.
7. Musurmonova, O. Ma’naviy madaniyat asoslari ,2018. Kasbiy madaniyat va shaxs kamoloti muammolari.Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi.Toshkent, 2018
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi.Toshkent, 2024